



## Navoiy Asarlarida Termiziylar Siymosi

**Kosimov Kamoliddin Alisherovich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti

Tarix kafedrası o‘qituvchisi

[qosimovkamoliddin61@gmail.com](mailto:qosimovkamoliddin61@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hakim Termiziy boshchiligida Termizda IX–X asrlarda shakllangan ilmi ilohiyot maktabi hamda uning tasavvuf taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Manbalar asosida allomaning ilmiy merosi, xususan “Xatm ul-valoyat” va “Navodir ul-usul” asarlarining Sharq va G‘arb ilmiy muhitidagi ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari orqali Termizlik mashoyixlar — Abu Bakr Varroq, Abu Zarr Termiziy, Homid Termiziy, Abulmuzaffar Termiziy kabi allomalarning hayoti, qarashlari va tasavvufiy hikmatlari ochib beriladi. Maqolada Termiz ilmiy muhiti, ustoz-shogird an‘analari hamda tasavvufning asosiy g‘oyalari — qalb pokligi, ma‘naviy kamolot va inson erkinligi masalalari yoritilib, ularning tarixiy-falsafiy ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Hakim Termiziy, Alisher Navoiy, tasavvuf, Termiz maktabi, ilmi ilohiyot, Abu Bakr Varroq, mashoyix, Movarounnahr, sufiylik, ma‘naviy meros, qalb, komillik.

### Kirish.

O‘z vaqtida Alisher Navoiy hazratlari Termiziy allomalar haqida yozar ekan, asosli va o‘rinli ta‘rif keltiradilar. Ya‘ni, xavotir – tinchsizlik, oromsizlik. Ishrof – yuqoriga chiqmoq, voqiya bo‘lmoq, tayyor bo‘lmoq, ya‘ni xavotirga ishrofi bor shaxslar – hamma narsaga tushunvchilar, debularning shaxsiyati hamda ijodiga odilona yuqori baho beradilar [1]. Shuning uchun ham biz – bugungi kun avlodlari o‘tmish ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li va serqirra ilmiy-diniy faoliyatini o‘rganish chog‘ida ular qoldirgan meros milliy qadriyatlarimiz hamda ma‘naviyatimizni teran boyitgan bebaho xazina ekanligini e‘tirof etamiz. Ana shu bebaho xazina rivojiga jonajon vatanimizning jahonga mashhur ko‘hna va navqiron Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlari qatorida Termiz shaxrining ham aloxida o‘rni bor. Yurtboshimiz I. Karimov Termiz shahriining tarixiy o‘tmishi xususida so‘zlab ta‘kidlaganidek: “Haqiqatan ham, azaldan Mag‘ribu Mashriqni o‘zaro bog‘lab kelgan, qadim savdo karvonlari o‘tadigan Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bu tuproqda necha ming yillar mobaynida turli din va madaniyatlar – zardushtiylik va buddaviylik, nasroniylik va musulmonlik an‘analari yonma-yon yashab kelganligini hisobga olsak, bu zaminning tarixi naqadar ko‘hna ekanligiga iqror bo‘lamiz” [2].

### Maqolaning maqsadi.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” (1496) asarida Termizlik allomalardan Muhammad binni Ali Hakim Termiziy (vafoti 869), Abu Bakr Varroq Termiziy (IX asr), Abu Zarr Termiziy (IX asr), Muhammad ibn Homid Termiziy (IX asr), Yusuf Hayot Termiziy (IX asr), Abu Nasr Muhammad

Termiziy (IX-X asr), Abulmuzaffar Termiziy (IX-X asr), Sayyid Burhoniddin Termiziy (vafoti 1240) va qisman Iso Termiziy (824-892)lar xususida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.<sup>1</sup>

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Termizda IX-X asrlar ilmi ilohiyot bobida shakllangan maktab bo'lib, ushbu maktabning sardaftari Hakim Termiziy edi. Alisher Navoiy alloma Hakim Termiziy haqida: «...Mashoyixi kibordindur... va ko'p hadisi bor va zohir karomoti va gasonifi dari bor»,<sup>2</sup> deydi. Darhaqiqat, Hakim Termiziyning 120 dan ziyod tasnifoti ichida “Xatm ul-valoyat” va “Navodir ul-usul” asarlari uzoq o'tmishda Arabu Ajam dunyosida mashhuru manzur edi. Hozirda ham bu asarlarning dovrug'i ayrichadir, ularning Qohira va Bayrut nashrlari bor hamda ingliz, nemis, fors, usmonli turk va o'zbek tilida tarjimalari amalga oshirilgan. Alisher Navoiyning guvohlik berishicha, “Kashf ul-mahjub” (“Sirlar kashfiyoti”) muallifi Hujviriy (1010-1072)ning ustozlari Abulfazl Hasan Xatliy (X asr goho, Xatloniy): “Muhammad durri yatimdurki, olamda adili (o'xshashi) yo'qdur”, Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) “Kudvat ul-avliyo” (“Valiylar mayog'i”), Shayx Ruhnuddin Simmoniy (1258-1335) “Bidoyat ul-avliyo, nihoyat ul-anbiyo” (“Avliyolarning boshlanishi, payg'ambarlarning oxiri”) deya Hakim Termiziy vasfida maqtovu olqishlar aytgan ekan [3-4].

Bahouddin Naqshband Hakim at-Termiziy haqida: «...har qachon kudvat ul-avliyo Xoja Muhammad Ali Hakim at-Termiziy ruhira tavajjuh voqe' bo'lur erdi, ul tavajjuh asari mahzi besifatlig' zuhuri erdi va har necha ul tavajjuh sayr voqe' bo'lur erdi, hech asari va gardi va sifati mutolaa tushmas erdi»,<sup>3</sup> deydi (“Nasoyim ul –muxabbat”. – B. 85) [5]. (“Har qachon avliyolar mayog'i Xoja Muhammad Ali Hakim Termiziy ruhoniyyatiga tavajjuh qilsak, bu tavajjuhning ta'siri sof besifatlik holatida bo'lur edi. Bu besifatlikda hech bir ish ko'zga tashlanmasdi”. Shuningdek, “Nasoyimul-muhabbat” asrida Hakim Termiziyning shogirdi – “qalblar jodusi” laqabini olgan Abu Ali Juzjoniy ham eslatib o'tiladi:

“Muhammad Ali Termiziy bila va Muhammad Fazl Balxiy bila suhbat tutubdur va alarga qarib ussindur”<sup>4</sup> (“Nasoyimul-muxabbat”. –B. 89). Alisher Navoiy ham Hakim Termiziyning kunyalari – Abu Abdullox, ismlari – Muhammad va otalarining ismi shariflari – Ali ekanligi ham shahodat beradi. Hakim Termiziy o'z davri diniy unvonlarining aksariyatiga sazovor bo'lgan ulug' zotdir. Ul zoti oliyning oromgohi ayni mahalda muqaddas sajdagoh tarzida mashhur bo'lib, o'z zamonida qutlug' ibodatxona vazifasini bajargan. Xoja Hakim at-Termiziy yana “Sodot ul-mashoyix” (“Shayxlar Sayyidi”) nisbalari bilan atalib, el orasida aksar “Hakim” unvoni bilan mashhur bo'lgan [6].

Shu o'rinda Alisher Navoiy Termiziy allomalardan yana biri Abu Zarr Termiziy zikrida o'z qaydlarini keltirib o'tadi. Alisher Navoiy odatdagidek, bu alloma haqidagi fikrini ham “Xuroson mashoyixidandur”<sup>5</sup> (“Nasoyim ul-muxabbat”. –B.88.), deb boshlaydi o'z so'zini. Mashoyix shayxning ko'pligi bo'lib, aksariyat munosabat izhor etiladigan shaxsga nisbatan ehtirom ma'nosida ishlatiladi, ya'ni shayxlar mazmunini ifoda etadi. Ammo Abu Zarr Termiziy ham boshqa Termiziylar qatori uning Movarounnahrda ekanligi aniq bo'lgani holda, nechundir, uni Xurosondan deydi. Navoiygacha, Navoiy davrida va Navoiydan keyingi zamonlarda Termiz shahrini Xuroson mintaqasiga tobe deb talqin etish bir an'anaga aylangan edi. Aslida, Xuroson va Movarounnahr uchun Jayxun daryosi nisbiy chegara hisoblangan, biroq Sulton Shohrux Mirzo (1377-1447) va Xalil Sulton (1384-1411) davriga kelib, bu chegara ancha ustuvorlashadi.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 15-tom. – Badiiy adabiyot, 1968. - B. 248.

<sup>2</sup> “Navodir ul-usul” (“Nodir usullar”)dek kitobidan

<sup>3</sup> “Nasoyim ul –muxabbat”. – B. 85

<sup>4</sup> “Nasoyim ul –muxabbat”. – B. 89

<sup>5</sup> “Nasoyim ul-muxabbat”. –B.88.

<sup>6</sup> Шайх Абдугани Абдулла. Ал-Хаким ат-Тирмизий // Совет Шарқи мусулмонлари. – 1990. – X° 4 (88). – Б. 14.

**Muhokama va natijalar.**

Abu Zarr Termiziy xususidagi kichik bir xabar, uning hayot yo'lini to'kis anglash imkonini bermasada, ma'lum tasavvurlar olishda muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy bundan tashqari, donishmand Abu Bakr Varroqning yetuk shogirdi, Termizlik mashhur shayx Muhammad ibn Homid Termiziy haqida naql qilgan ekan, u kishining ajoyib so'zlarini keltiradi. Homid Termiziy aytar ekanki: "Insonning eski choponda yurgani, bironing yangi to'nini kiyib yurgandan yaxshiroqdir", yoki yana: "Sening sarmoyang ko'ngling va vaqtingdur", ya'ni sarmoya – boyluk, boyluk bu – qalb. Demak, Allohni qalban his etish tasavvufning bosh g'oyasi. Allohni oddiy ko'z bilan emas, balki qalb ko'zi bilan ko'ra bilish tashviqoti tasavvufning yetakchi mohiyati, zero tasavvuf talqinida qalb – iymon nurining ma'dani. Alisher Navoiy ayni choqda Homid Termiziyning o'g'li, Xuroson mashoyixlaridan bo'lmish Abu Nasr Muhammad Termiziy haqida ham ma'lumot berib o'tadi [7-8].

"Nasoyim ul-muhabbat"da Termizlik ulug' zotlardan yana biri – Homid Termiziyning shogirdi Abulmuzaffar Termiziy to'g'risida ham ma'lumot mavjud. Alisher Navoiy Abulmuzaffar Termiziyning: "Kimki senga yaxshilik qilsa, seni o'ziga bog'lab oladi, demak, u seni ipsiz bog'lab oladi, kimki yomonlik qilsa, seni o'zidan uzoqlashtiradi, uzoqlashtirish ipsiz bog'lashdan afzalroqdir. Ozodlik yaxshimi, qullik?", degan fikrlarini keltiradi [9].

Abulmuzaffarning ushbu so'zlari zamirida g'oyat ulkan ma'no va mohiyat, mantiq va mazmun mujassam. Tasavvuf ilmida Alloh vasliga yetmoq uchun ranju alam chekish g'oyalari ilgari suriladi. Sababi – maqsadga osongina yetishga intilmaslik maqbul, uning lazzati, uning mazasi zahmatlarda namoyon bo'ladi, qolaversa bir inson boshqasiga mute bo'lmasligi lozim.

Alisher Navoiy sufiylik tariqatida o'ziga xos maqomga ega Sayyid Burhoniddin Termiziy (vafoti 1240) xususida chuqur ehtirom bilan so'z yuritadi. Uning Shayx Baho Valad (vafoti 1232)ga murid ekani, inchunin, Baho Valadning farzandi azizi, butun Yaqin va O'rta Sharq zaminida taniqli sufiy shoir Mavlono Rumi (1207-1273)ga esa shaxsan Termiziy pirlilik qilgani ushbu tarzda eslatiladi: "Va, Mavlono Jaloluddin hazratlari to'qqiz yilgacha alar (ya'ni, Termiziy) xizmatlarida bo'lib, irshodlar ko'rub tarbiyat topdilar"<sup>7</sup> (Navoiy A. "Nasoyim ul-muhabbat". 17-tom. – T.: Fan, 2001. – B. 325). Shuningdek, Sayyid Burhoniddinning sevimli shogirdi Shayx Salohuddin Zarqub (vafoti 1254), ayni paytda, Mavlono Rumiya ham shogird, ham xalifa (o'rinbosar) ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy bu boradagi fikrini isbotlash uchun Sayyid Burhoniddinning o'z so'zlarini keltiradi: "Sayyid (ya'ni, Termiziy) derlar ermishki, holimni (zavqu hol) Shayx Salohuddinga bag'ishladim va qolimni (qiyu qol) Mavlono (Rumi)ga" ("Nasoyim ul-muhabbat". – B. 325). G'aroyib jihati shundaki, Mavlono Rumiyning o'g'li Sulton Valad (1226-1312) ham Termiziyga va Shamsuddin Tabriziy (vafoti 1247)larga muridlikka tushgan ekan. Bu haqda "Nasoyim ul-muhabbat"da o'qiyimiz: "Ul (ya'ni, Sulton Valad), Sayyid Burhoniddin Muhammad bila Shayx Shamsuddin Tabriziy quddisa sirrahuga shoyista xizmatlar qilib erdi"<sup>8</sup> ("Nasoyim ul-muhabbat". – B. 335) [10].

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Sayyid Burhoniddin Termiziy ta'rifini "Xusayniy Sayyiddur va Termizdan erdi" deya keltirar ekan, uni hazrat Alining o'g'li Husayn avlodiga mansubligiga ochiqcha ishora qiladi. Alisher Navoiy, hatto, Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq vafotidan so'ng, Rumi hayotiga kirib kelgan Shamsuddin Tabriziyning fojiali o'limi voqealari va qotillardan biri Rumiyning o'g'li Alouddin Muhammad ekanigacha hikoya qiladi. ("Nasoyim ul-muhabbat". – B. 332.). Alisher Navoiy "Holati Pahlavon Muhammad" asari (1496)da Pahlavon Muhammad (1423-1493)ni musiqa ilmida, xonandalikda tengi yo'q san'atkor sifatida ta'riflar ekan, u yaratgan Mavlono Tutiy she'riga "Chahorgoh" kuyi Mir Buzurg Termiziy nomiga atalganligini ta'kidlaydi.

<sup>7</sup> (Navoiy A. "Насойим ул-мухаббат". 17-том. – Т.: Фан, 2001. – Б. 325).

<sup>8</sup> ("Насойим ул-мухаббат". – Б. 335).

Aslida ham Mir Buzurg Termiziy XV asrning ko'zga ko'ringan shayxlaridan, Termizlik sayyidlar avlodidan, temuriylar tomonidan e'tirof etilgan va siyosat maydonida yalovbardor shaxslardan biri edi. Bobur "Boburnoma"ning bir necha o'rnida u kishi haqida ehtirom bilan so'z yuritadi, uning avlodlari xususida ham ma'lumotlar berib o'tadi. Sulton Mahmud (Boburning otasi Umarshayxning akasi)ning katta o'g'li Sulton Mas'ud (1475-1506)ning onasi Xonzodabegim esa Mir Buzurg Termiziyning to'ng'ich qizi ekanligi aytadi. Sulton Mas'ud ikki tilda Shohiy va Orifiy taxalluslari bilan she'rlar bitgan iste'dodli sohibi devon shoir bo'lgan, o'zbekcha she'rlar devonining nashri mavjud.<sup>9</sup>

Hakim Termiziyning boshqa bir asari murshid va murid savol-javoblari tarzida bitilgan "Xatm al-valoyat" ("Valiylar cho'qqisi") bo'lib, u yigirma to'qqiz bobdan iborat. Bu asar valiylik tizimi, uning qonun-qoidalari, asosiy talablari to'kis bayonini topganligi bilan qadrlidir. Allomaning navbatdagi asari "Al-amsal min al-kitob va-s-sunna" ("Qur'on va sunnatda kelgan misollar kitobi") deb ataladi va unda o'n sakkizta Qur'on oyatlariga tafsir bitiladi, uning mavzular olami, mazmun ko'lami beqiyos. Asarda yahudiylik, butparastlik, buddaviylik masalalariga alohida urg'u beriladi va bu hodisa Hakim Termiziyning sanskrit yoki yunon tilini bilganiga zarracha shubha qoldirmaydi. Hakim Termiziy asarlari jahon mamlakatlarining turli kutubxonalarida saqlanadi, ularning manzili aniq va ro'yxati mavjud. Bu kitoblarning nashri va tadqiqodi buyicha chet el olimlari ancha ishlarni amalga oshirganlar, mustaqillik tufayli o'zimizda ham bu borada e'tiborli ishlar qilinmoqda. Chunonchi, uning "Navro'znoma", "Solnoma", "Manozil ul-ibod min al-iboda" ("Bandalarning bandachilikdagi manzillari"), "Buduvv ash-sha'n Abu Abdulloh" ("Abu Abdulloh ishlarining boshlanishi"), "Navodir al-usul" (ayrim parchalar), "Javob al-maso'il sa'alahu ahlu Saraxs anxo" ("Saraxs shahri ahli so'ragan masalalar javobi") asarlari o'zbek tilida e'lon qilindi.

Allomaning birinchi ustoz bo'lgan padari buzrukvori Ali ibn Hasan ibn Bishr ibn Xorrun at-Termiziy mashhur muhaddislar qatorida turgan, u bir muddat Bag'dodda ta'lim olgan kezlari shu shahar ulamolari orasida katta obro'ga ega bo'lgan. Ali ibn Hasan hadis darsinii o'z yurtdoshi Solih ibn Abdulloh at-Termiziydan olgan bo'lsa, o'z navbatida, Solih ibn Abdulloh at-Termiziy esa hadis ilmini al-Qosim ibn Ubbod at-Termiziydan o'rgangan. Shu tariqa "at-Termiziy al-kabir" (katta Termiziy) nisbasini olgan Abulhasan Ahmad ibn al-Hasan ibn Junaydiy at-Termiziy (vafoti 854), al-Qosim Ubbod at-Termiziy, Solih ibn Abdulloh at-Termiziy, Maktub ibn Abbos at-Termiziy, Solih ibn Muhammad at-Termiziy, al-Jorud ibn Ma'oz as-Sulamiy at-Termiziy, Ali ibn al-Hasan at-Termiziy, Abu Iso Imom at-Termiziy (824-892) kabilar uzoq yillar Bag'dod hadischiligi maktabida peshqadam bo'lganlar [11-12].

Solih ibn Abdulloh at-Termiziy va Jorud ibn Ma'oz as-Sulamiy at-Termiziy "Sihoh sitta" (Olti mo'tabar hadis to'plami) mualliflariga ustozlik qilgan to'qqiz ulug' shayxlar safidan o'rin olganlar. E'tirofini topgan to'qqiz ulur shayx safidan mustahkam o'rin egallagan bu ikki allomai zamon bilan birga Solih ibn Muhammad at-Termiziy hadis ilmida Hakim at-Termiziyga ustozlik qilganlar. Solih ibn Abdulloh at-Termiziy ayni zamonda atoqli muxaddis Abu Iso Imom at-Termiziyga ham hadis saboqlarini o'rgatgan ulug' ustozdir. Maktub ibn Abbos at-Termiziy hadis ilmida o'z mavqeiga ega buyuk zotlardan, jumladan, Abu Iso Imom at-Termiziy fiqhiy isnodlar (shariat qonunlari)ni ushbu ulug' zotdan naql qiladi. Katta Termiziy, ya'ni Abulhasan Ahmad ibn Hasan ibn Junaydiy at-Termiziydan esa birato'la Imom al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Imom at-Termiziy, ibn Mojja (834-886) va boshqalar hadis rivoyat etadilar. Solih ibn Muhammad at-Termiziydan bo'lsa Abu Hasan ibn Hallol Mukriy hadis rivoyat qilgani g'oyat e'tiborlidir. Dastlabki bilimlarini ona shahri Termizda olgan bu allomai zamonlar avlodlari xalifalik poytaxti Bag'dod (749-1258)da davrgacha yashab, hadis ilmi rivojiga barakali hissa qo'shganlar. Hakim

<sup>9</sup> (Султон Масъуд Мирзо Шохий. Девон. Нашрга тайёрловчи: А. Абдугафуров. –Тошкент: Истиклол, 2001. – Б. 104.).

at-Termiziy “Buduvv ash-sha'n Abu Abdul-loh” (“Abu Abdulloh ishlarining boshlanishi”)da Bag‘dodda hadis ilmini mukammal darajada egallaganini chuqur qoniqish bilan eslatadi.

Ko‘rinadiki, Hakim at-Termiziy hadisnavislik va hadisshunoslik hamda boshqa diniy ilmlar ma‘lum shakl tizimiga ega bo‘lgan muhitda tug‘ilib voyaga yetgan ekan. Islom an‘analarining Termiz shahriga xiyla ilgariroq kirib kela boshlagani yanada e‘tiborlidir. Masalan, Xuroson noibi Abdulloh ibn Xodim (683-692)ning o‘g‘li Muso ibn Abdulloh 689 yili Termizni ishg‘ol qilib, shaharni muttasil o‘n besh yil idora etadi. Bu davrda Movarounnahr o‘lkalaridan aksariyati Muso tasarrufida bo‘lib, jamlangan o‘lponlar uning xazinasiga kelib tushar edi. Bu 689-704-yillar oralig‘ida Termizga islom dini uchqunlari kirib kela boshlaganini bildiradi. Termizda tug‘ilib o‘sgan Abu Muhriz Jahm ibn Safvon (vafoti 745) asos solgan murji‘iylik yo‘nalishidagi al-Jahmiya kalom maktabi katta kuchga ega edi. Ma'lumki, al-Jahmiya ta'limoti Termiz shahrida va, umuman, mintaqada o‘z harakatini XI asrgacha davom ettirgan [13].

Termizda bir muddat qozilik qilgan Solih ibn Muhammad at-Termiziy aynan al-Jahmiya ta'limoti tarafdorlaridan edi, Hakim at-Termiziy esa jahmiya harakati va uning aqidalariga salbiy munosabatda bo‘lgan. Termizda al-Jahmiya yo‘nalishi bilan yonma-yon Hanafiya mazhabi ham ustuvorlasha bordi, bu holat shaharda qozilik qilgan ota-bola Xolid ibn Ziyod at-Termiziy va Abdulaziz ibn Xolid at-Termiziy faoliyatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Manbalarda kayd etilishicha 748 yili Xolid ibn Ziyod at-Termiziy mutafakkir Abu Xanifa (699-767) bilan uchrashgan. Jahmiylar ta'limotining muvaqqat hukmronligi oqibati o‘laroq, Abdulaziz ibn Xolid at-Termiziy 796 yili Farg‘onaga surgun qilingan. Keyinchalik u Marv shahrida bosh qozilik qilgan.

Al-Hakim at-Termiziyning sodiq va Solih shogirdi Varroq at-Termiziy esa Ahmad Xizraviyaning chinakam do‘stlaridan edi. Farididdin Attor (1145-1221) “Tazkirat al-avliyo”da Hakim at-Termiziy haqida: “Suhbati bu Turob rahimahullohu, Ahmad Xizraviya rahimaxullohu, Ibni Jallo rahimahullohu yofta bud” (“Bu Turob, Ahmad Xizraviya va Ibni Jallolarning suhbatini olgan edi”), deb yozgandi. Attor, shuningdek, Hakim at-Termiziyning Yah'yo Maoz (vafoti 872) bilan suhbatlarida munozaraga kirishgani va ko‘pincha ul zot (Yah'yo Maoz)ni lol qoldirgani xususida ham xabar berib o‘tadi. Uzoq yillar Naxshabiy (asli ismi Asqar bo‘lgan Hasin. vafoti 861), Ibni Jallo va Yah'yo Maozlarni Hakim at-Termiziyning ustozlari – Termiziylarning ilmiy tafakkuri sifatida qarab keldik. Aslida ular suhbatdoshlar, uchrashib muloqotda bo‘lgan tengdosh allomalar edi, ana shu do‘stlar hayotini o‘rganish Hakim at-Termiziy hayot yo‘lining ayrim jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. “Buduvv ash-sha'n”da aytilishicha, alloma Basradan Makkaga boradi, u yerda bir muddat istiqomat qilib, muborak haj amallarini bajargandan so‘ng vataniga qaytadi. Musofirlik kezlarida, uyga qaytish onlarida Allohning kitobini o‘qish va uqib olishga bo‘lgan havas uni tark etmaydi. Natijada u yo‘l bo‘yi Qur‘oni karimni bemalol yodlab oladi. O‘sha asnodan Ahmad ibn Osim al-Antokiy (vafoti 853)ning “Davo' al-kulub” (“Qalblar davosi”) kitobi Hakim at-Termiziy qo‘liga tushib qoladi. Bu kitob allomaning shuuriga kuchli ta'sir o‘tkazadi, unga o‘z hayot yo‘lini belgilab olishida va to‘g‘ri yo‘l tanlashida ko‘maklashadi. Chunki Antokiy ta'limotining yo‘li ilm yo‘li edi, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”<sup>10</sup> (T.: Fan, 2001. – B. 52) da Antokiydan quyidagi so‘zlarni keltiradi: “Har amalning imomi ilmdur, har ilmning imomi – inoyat” (“Orzuning yetakchisi ilmdir, ilmning yetakchisi – maqsad”), Atorning e'tiroficha, Hakim at-Termiziy asos solgan Hakimiya ta'limotining mazhabi – yo‘li ham ilmga asoslanar edi [14]. Bu ta'limotning shakllanishida Xoris ibn Asad Muhosibiy (vafoti 857) qarashlarining ham ta'siri kattaligini unutmazlik lozim. Muhosibiy qalamiga mansub “Kitob ilm” risolasi Hakim at-Termiziyning “Kitob bayon al-ilm” asarining yuzaga kelishida ilhom manbai bo‘lib hizmat qiladi.

<sup>10</sup> Алишер Навоий “Насойим ул-мухаббат” (Т.: Фан, 2001. –Б. 52)

Shundan Hakim at-Termiziy “Tasavvuf – bu bilim”, “Ilm – bu nurdir”, “Nur – xaqni nohaqdan ajratadi”, “Nur-sodiq qulini iymonga yetaklaydi”, “Nur – Alloh tomonidan banda qalbiga joylashtirilgan”, “Qalblarni munavvar etuvchi narsa – Alloh nuri” singari shiorlarning ustuvorlashuvi yo‘lida qat’iy kurashadi. Alloma butun umri davomida ilm izidan bordi, goho ilm izlab tanholikni istab qoladi, yakkalikni ixtiyor aylaydi. Odamlardan yotsirash, odamlardan xolilikni qo‘msash, ulardan uzoqda bo‘lish xohishi allomani shahar atrofidagi xarobalarga, vayrona qabristonlarga undadi. “Shaharda uni hech kim tushunmas edi”, deydi Attor. Oxir-oqibat g‘araz va arazlar shu darajaga yetdiki, allomani Termizdan badarg‘a qilishadi.

Hakim at-Termiziy haqidagi ma'lumotlarning eng qadimiysi XI asr boshlarida yaratilgan as-Sulamiy (vafoti 1021)ning “Tabaqot as-sufiya” va Abu Nuaym (yoki Na'yim) Isfaxoniy (vafoti 1038)ning “Hidoyat al-avliyo» (“Avliyolar bezagi”) asarlaridir. Boshqa mualliflar ham o‘zlarining sufiylar sharhiga doir asarlarida Hakim at-Termiziyning nomini zikr etganlar. Mualliflarning ta’kidlashlaricha, Termiz shahri ulamolari Hakim at-Termiziyning kofirlikda ayblab, uni Termiz shahridan badarg‘a qildirishga erishadilar [15].

Darhaqiqat, Hakim at-Termiziyning hayoti silliq kechmagan, u doimiy ravishda ta’na-malomatlar girdobida qolib, qanchadan-qancha ig‘volarga uchragan. Hofiz ibn Hajar Asqaloniy (vafoti 1449) “Lison ul-mezon”da alloma haqida fikr yuritib, “Tarixi Halab” asari muallifi Qozi Kamoliddin ibn Adimning Hakim at-Termiziy xususidagi g‘alati va ig‘vogarona fikrlarini aynan keltirib o‘tadi: “Hakim Termiziy hadis ahlidan emas edi va, hech qanday rivoyat ham naql qilgan emas edi. U ilm-fan sohasining rango-rang mahoratidan bebahra edi, balki tanho ishoralar asosida sufiylik ravishi va haqiqati kashfi iddaosini o‘rama so‘zlar vositasida izhor etgan, xolos.

U shu darajaga borib yetdiki, fiqhlar qoidasidan chetga chiqib ketdi, shu jihatdan ta'nayu tahqirlarga sazovor etildi. Fiqh ulamolari va sufiylarning peshvolari unga uni ravishlar doirasiga qabul qilish mavrididan chetga chiqarish maqbulligi aybini quyishdi. Fiqh va sufiy ulamolar dedilarki: u shariatga shunday keraksiz narsalarni olib kirdiki, shu sababli mu‘sulmon jamoati orasndan haydaldi. O‘zining rasvo kitoblarini uydirma hadislar ila to‘ldirdi va ularni xabarlar iziga tirkadi, ammo o‘sha hadislarini na biror kishi rivoyat qilgan va na biror kishi eshitgan. U o‘zining kitoblariga butun shariat ishlarini kiritib, ularning ma'nolarini tushunib yetmay, aksar zaif va sust dalillar ila sharhlashga intilgan”.

Hakim at-Termiziyning ilm haqidagi fikrlari keyingi davrlarda Imom Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) tarafidan davom ettiriladi. Hakim at-Termiziy bilan Moturidiy aloqalari Varroq Termiziyning shogirdi Abulqosim Hakim Samarqandiy (vafoti 953) vositasida bog‘landi. Boisi, shayx Abulqosim fiqh va kalom ilmida komil bo‘lib, ayni Moturidiyning zamondoshi va yaqin hamfikrlaridan biri edi. Demakki, shayx Abulqosim Hakimiya ta'limoti ila yaxshi tanish bo‘lib, unga bejizga “Xakim” unvoni berilmagandi. Keyingi paytlarda qadimshunos olimlar Urgut tumani, Ispanza qishlog‘i xududida muqaddas sanalgan qabrni tekshirib ko‘rishdi, dafn etilgan inson oltmish yoshlarda ekani tasdiqlandi. Mahalliy aholi tomonidan Hakim at-Termiziyning nabirasi deya talqin etilayotgan bu shaxsning ismi sharifi Abulqosim Hakim Termiziy deyilmokda. Aftidan, yuqorida zikr etilgan Abulqosim Hakim Samarqandiy bilan Abulqosim Hakim Termiziy bir shaxs bo‘lishi ehtimoli haqiqatga ancha yaqin turadi. Al-Hakim at-Termiziyning “Kitob bayon al-ilm”, “Ilm al-avliyo” (“Avliyolar ilmi”), “Siyrat al-avliyo” (“Avliyolar siyrati”, ikkinchi nomi “Xatm al-valoyat” – “Valiylilik cho‘qqisi” yoki “Xatm al-avliyo” – “Avliyollarning so‘ngisi”, yanada aniqrog‘i – “Avliyolik cho‘qqisi”), “Al-ilm”, “Kitob al-xuquq”, “Taboqat as-sufiya” (“Tarix al-mashoyix”), “Kitob al-xikma ilm al-botin” (“Donishmandlik ilmning ichki sirlari kitobi”) va boshqa asarlarida ilmning nazariy asoslari hamda bu borada sufiylarning tutgan o‘rni o‘z aksini topgan. Hakim at-Termiziy “tasavvuf – bu, bilim”, degan g‘oya va shiorni jiddiy himoya qildi hamda tasavvufning ilm maqomini olishi uchun beqiyos jonbozliklar ko‘rsatdi. Allomaning asar

va risolalari tasavvuf ilmida ustuvor iz qoldirdi, shuningdek, ular kelgusi avlodlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

### **Xulosa.**

Mazkur tadqiqotdan ko'rinadiki, Hakim Termiziy asos solgan Termiz ilohiyot maktabi nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham tasavvuf va diniy-falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Allomaning boy ilmiy merosi va uning izdoshlarining faoliyati orqali Termiz hududi muhim ma'naviy markazga aylangan. Alisher Navoiyning asarlarida bu allomalar haqida berilgan ma'lumotlar ularning yuksak maqomini, tasavvufdagi o'rni va ta'sir doirasini yaqqol tasdiqlaydi. Shuningdek, Termizlik mashoyixlar ilgari surgan g'oyalar — qalb pokligi, ma'naviy kamolot, sabr, erkinlik va Allohga muhabbat — bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu ilmiy va ruhiy meros insonni komillikka yetaklovchi muhim manba sifatida qadrlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- [1] Alisher Navoiy, Asarlar. 15 tomlik, 15-tom, Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968.
- [2] Alisher Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat, Toshkent: Fan, 2001.
- [3] Hakim Termiziy, Navodir al-usul fi ma'rifat ahadis ar-rasul, Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002.
- [4] Hakim Termiziy, Khatm al-awliya, Qohira: Maktabat al-Qahira, 1999.
- [5] Shayx Abdug'ani Abdulla, "Al-Hakim at-Termiziy," Sovet Sharqi musulmonlari, no. 4 (88), pp. 14–18, 1990.
- [6] Fariduddin Attar, Tazkirat al-awliya, Tehran: Elmi Press, 2003.
- [7] Ali ibn Usman al-Hujwiri, Kashf al-mahjub, Lahore: Islamic Book Foundation, 1997.
- [8] Abu Nuaym al-Isfahani, Hilyat al-awliya, Bayrut: Dar al-Fikr, 2007.
- [9] Abu Abdurrahman as-Sulami, Tabaqat al-sufiya, Qohira: Dar al-Kutub, 1969.
- [10] Ibn Hajar al-Asqalani, Lisan al-mizan, Bayrut: Dar al-Ma'rifa, 1986.
- [11] Abu Mansur al-Moturidiy, Kitab at-tawhid, Istanbul: Diyanet Press, 2005.
- [12] Imam al-Bukhari, Al-Jami' as-sahih, Bayrut: Dar Ibn Kathir, 2002.
- [13] Imam at-Termiziy, Sunan at-Tirmidhi, Riyadh: Darussalam, 2007.
- [14] Ahmad ibn Hanbal, Musnad Ahmad ibn Hanbal, Bayrut: Muassasat ar-Risala, 2001.
- [15] S. M. Mirzo Shohiy, Devon, Toshkent: Istiqolol, 2001.